

KO'HNA SAMARQAND SHAHRI-ILK SIVILIZATSIYALAR O'CHOG'I

Meliyeva Parvina

Yuridik fakulteti sotsiologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada jahon sivilizatsiyalarining ilk o'choqlaridan biri bo'lgan yurtimizdagi Samarqand shahrining paydo bo'lish tarixi, u yerdagi qadimiy joylar, temuriylar davrida shaharning holati haqida to'xtalib o'tamiz. Shuningdek, hozirda O'zbekistonning yirik iqtisodiy va ilmiy-madaniy markazi bo'lgan ushbu shaharda o'tkazilayotgan xalqaro konferensiyalar mamlakatimizning siyosiy nufuzini oshirishi, chet el sayyohlarining e'tiborini o'zining boy tarixi va go'zalligi bilan jalb etayotgan ko'hna shahar tarixi bilan yaqindan tanishmoq zarurdir.

Kalit so'zlar: jahon sivilizatsiyasi, gumanitar, renessans, xalqaro konferensiya, sayyohlar, sessiya, transport-kommunikatsiya, savdo rastalari, donishmandlar, madaniy-gumanitar sohalar.

Samarqand juda boy va qadimiy tarixga ega. Miloddan oldingi 1-ming yillikning o'rtalaridan to XVII asr boshlarigacha Samarqand So'g'dning ma'muriy markazi bo'lgan. Ko'hna shaharning qoldiqlari Afrosiyob xarobalarida saqlanib qolgan.

Shuningdek, ushbu shahar Buyuk ipak yo'lida ham muhim bo'g'in hisoblanadi. Shahar savdogarlari Xitoy, Eron, Misr, Suriya, Hindiston, Vizantiya bilan savdo-sotiq qilar edi. Aynan Samarqandda Sharq va G'arb madaniyatlari o'zaro to'qnashgan va bir-birini boyitgan. Shu bois sharqda keng tarqalgan maqolalarning birida "G'arbda Rim, sharqda Samarqand" deyilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak Samarqand va Rim insoniyat taqdiridagi buyuk xizmatlarni nazarda tutib, "Boqiy" nomini olgan.

Amir Temurning Movarounnahr hukmdori deb e'tirof etilishi Samarqand tarixi uchun yangi sahifa ochib berdi. Temur va temuriylar hukmronligi davrida Samarqand davlat poytaxti sifatida XIV asr oxirida XV asrlarda Sharqning eng go'zal shahri, Markaziy Osiyoning yirik iqtisodiy, siyosiy, madaniy markaziga aylandi. Bu davrda Samarqandda o'nlab binolar, g'arbiy qismida esa shahar qal'asi barpo etildi. Uning ichida ikkita qasr-Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy, hunarmandchilik ustaxonalari, savdo rastalari, karvonsaroylar, hammomlar, shifoxonalar va boshqa madaniy-maishiy binolar qurildi. Bu kabi obidalar hozirgacha saqlanib kelinmoqda.

“Samarqand” so‘zining kelib chiqishi haqida bir qator ma’lumotlar, farazlar mavjud. Sharq mualliflari “Samarqand” so‘zining 1-qismi, ya’ni “Samar” so‘zi shu shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan kishining nomi deb hisoblab, bir qancha takliflarni aytgan, ammo tarixda bunday ismli kishi haqida ma’lumotlar aniqlanmagan. So‘zning 2-qismi “kent”- qishloq, shahar degan ma’noni bildiradi. Ba’zi yevropalik olimlar, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha “Samarya”ga yaqin, ya’ni “yig‘ilish, yig‘in” so‘zidan kelib chiqqan deb izohlaydilar.

Samarqand eng qadimgi shahar bo‘lib, Rim va Afina bilan tengdoshdir. Ushbu shahar 2750 yillik tarixga ega. Shahar har doim haqiqiy sharqona mehmondo‘stlikning chinakam namunasi bo‘lganligi bilan ajralib turgan. Ayniqsa Samarqandda joylashgan Registon maydoni bir necha yillardan buyon ko‘p chet el sayyohlarining e’tiborini tortib kelmoqda. Registon maydoni “yer yuzining sayqali” deb tan olingan. Amir Temur birlashtirgan yigirma yetti davlat poytaxti bo‘lgan mashhur Samarqandning o‘ziga xos ko‘zgusidir. Registon maydoni Bahodir Yalangto‘sh davrida shakllangan.

“Registon” degan so‘z fors tilidan olingan bo‘lib, “qumli joy” degan ma’noni bildiradi, “reg”-qum, “iston”-turish joyi demakdir. Tarixiy ma’lumotlar va aniq ilmiy ashyoviy dalillarga asoslanib aytish mumkin-ki, bu yerdan janubiy sharqdan, shimoliy g‘arbga tomon katta ariq oqib o‘tgan, vaqt o‘tib ariq qurigandan so‘ng, o‘rnida qumloq joy qolgan. Ana shu asosda “registon” degan so‘z kelib chiqqan.

Amir Temur hukmronligi davrida hozirgi Registon maydoni o‘rnida markaziy bozor bo‘lgan. Ana shu davrdan Samarqand jahonga mashhur ilm-u fan va hunarmandchilik markazi bo‘lib dunyoga tanilgan. Bu yerga yetti iqlimning olim-u fuzalolari, hunarmad, donishmandlari kelgan.

Ko‘hna va hamisha navqiron shahar Samarqand shahri betakror sharqona qiyofasi, boy tarixi, har qanday odamni hayratga soladigan noyob obidalari bilan sayyoramizning turli o‘lkalarida afsonaviy shahar sifatida mashhur bo‘ldi, Rim bilan bir qatorda turadigan “abadiy shahar” degan nom bilan Sharq gavhariga, bugun jahon ahlining albatta kelib ko‘rishi shart bo‘lgan 50 ta shaharning biriga aylandi.

Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning tashabbusi bilan mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilgan va Samarqand shahri ham har tomonlama obod qilinib, butun jahondan keladigan sayyohlarning havasini tortmoqda.

Bugungi kunda ushbu shaharda ko‘plab davlatlararo konferensiyalar bo‘lib o‘tayotganini guvohi bo‘lmoqdamiz. Aynan Samarqand shahrida o‘tkazilishi esa O‘zbekistonning boyligi va ko‘p asrlik merosini xalqaro hamjamiyatga namoyish etish uchun keng imkoniyat yaratdi. Xususan 2017-yilda Samarqand shahrida “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va

taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tgan. BMT shafeligida o‘tkazilgan mazkur forum Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta‘minlash masalalariga qaratilgan. Unda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport-kommunikatsiya, suv-energetika, ekologiya, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik sur‘atini oshirishning aniq yo‘nalishlari va boshqalar muhokama qilindi.

Undan tashqari 2017-yilning 28-avgust kuni “Jahon tamadduni tarixida Markaziy Osiyo renessansi” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya ham bo‘lib o‘tgan. Konferensiya Markaziy Osiyo olim va mutafakkirlarining tarixiy merosni chuqur o‘rganish va anglash, jahon jamoatchiligini ularning aniq, tabiiy fanlar va islom ilmlari rivojiga qo‘shgan hissasi bilan kengroq tanishtirish, ilmiy markazlar va olimlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish maqsadida o‘tkazilgan.

Shu bilan birga 2025-yilda Buyuk ipak yo‘lining eng qadimiy, madaniy va ilmiy markazlaridan biri-Samarqand shahrida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi bo‘lib o‘tishi kutilmoqda. Bu nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun tarixiy voqea bo‘ladi. Ushbu qaror 2023-yil noyabr oyida Parijda bo‘lib o‘tgan YUNESKO Bosh konferensiyasining 42-sessiyasida qabul qilingan.

YUNESKO Bosh konferensiyasi har ikki yilda bir marta barcha 194 a‘zo davlatlar vakillarini, shuningdek, kuzatuvchilar, xalqaro tashkilotlar delegatlari, olimlar, madaniyat va fuqarolik jamiyati arboblari to‘playdi. Uning maydonchasida ta‘lim, fan, madaniyat va kommunikatsiyalar sohasidagi strategik ustuvorliklar muhokama qilinadi, tashkilotning dasturlari va byudjeti tasdiqlanadi.

Bu kabi xalqaro konferensiyalarda aynan Samarqandning tanlanishi O'zbekistonning global madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, madaniy va tarixiy merosni asrab-avaylash va ommalashtirish, shuningdek barqaror rivojlanish maqsadlarini ilgari surishga qo'shayotgan hissasining xalqaro miqyosda tobora ortib borayotgan e'tirofini aks ettiradi. Shuningdek bu konferensiya O'zbekistonning madaniy diplomatiya markazi, global tashabbuslarda hamkor va jahon gumanitar kun tartibining kelajagini shakllantirishda teng ishtirok etishga qodir mamlakat sifatidagi maqomini tasdiqlovchi muhim xalqaro voqea bo'ladi.

Bu kabi Samarqand shahrida o'tkazilayotgan konferensiyalar, shahardagi tarixiy obidalar va uning go'zalligi nafaqat yurtimiz aholisini balki, boshqa davlat vakillarining ham e'tiborini tortaveradi. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I. Karimovning 1996-yil Samarqand shahriga Amir Temur ordenini topshirish chog'ida so'zlagan nutqida: "Samarqand nafaqat muqaddas obida va betakror tarixiy mo'jizalari, balki zamonaviy ishlab chiqarish salohiyati bilan, eng qimmatli boyligi-bag'ri keng, qalbi go'zal xalqi bilan butun dunyoda mashhur",- degan edilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston hududa bir necha yillik tarixiga, qadimiy obidalariga va o'zgacha go'zallik va tarovatiga ega Samarqand shahrida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev kelgusida butun Samarqandning "tashrif qog'oziga" aylanuvchi "Boqiy shahar" me'moriy ansambilini barpo etdi. "Har qanday sayyohni qadimiy afsonalar olamiga, tarixiy obidalar dunyosiga olib kiradigan tom ma'nodagi noyob loyiha",- deb Prezidentimiz "Boqiy shahar" ansambiliga ta'rif berdi. Undan tashqari Samarqand shahriga tashrif buyurayotgan sayyohlar uchun yaxshi shart-sharoit yaratish maqsadida Prezidentimiz

Samarqand shahri Bosh rejasini xorijlik mutaxassislar bilan birgalikda loyihalashtirish, katta mehmonxonalar bilan birga sayyohlar uchun kichik-kichik otellalar ham bunyod etish zarurligini ta'kidladi. Samarqandning hozirgi sayyohlik salohiyati, albatta tarixiy qadamjolar hisobigadir. Shu sababli bunday yodgorliklarni saqlashda mustaqillikning ilk yillaridan obodonlashtirish ishlari olib borilgan va bu hozirga qadar davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D. Abduhamidov. Samarqand-qadimiy va hamisha navqiron shahar.
2. I. Xo'jageldiyev. Samarqand me'moriy yodgorliklari tarixi.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15203095>.
3. A. Samadov. Samarqandda xalqaro konferensiya boshlandi.
4. Samarqand 2025-yilda YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasiga mezbonlik qiladi. 2025. nova.acdf.uz/uz/news/samarqand-to-host-the-43rd-session-of-the-unesco-general-conference-in-2025.
5. A. Berdimurodov. Samarqand tarixi ostonasidagi o'ylar. 2024.
6. samshahar.uz/menu/29/
7. uzbekistan.travel/uz/o/samarqand-tarixi/
8. samarqand.uz/about_region/general_information.
9. samdu.uz/uz/news/15264.
10. kun.uz/27530119?q=%2F27530119#!
11. president.uz/oz/lists/veiw/1954.